

IPAK YO'LINING TARIXIY MEROSI: MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZARO TASIR

Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

muhammadjonovamashhura4@gmail.com.

Tel: +99 888 881 62 32

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buyuk Ipak yo'lining shakllanishida va rivojida O'zbekiston va boshqa sharq mamlakatlarining buyuk ipak yo'lida tutgan o'rni, ularning tarixiy hamkorlik aloqalari, madaniy va iqtisodiy rivojlanishdagi o'zaro ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida bu mamlakatlar o'rtasida tarixiy Ipak yo'li merosiga asoslangan hamkorlikning zamonaviy yo'nalishlari yoritilgan. Mazkur maqolada insoniyatga uzoq yillar mobaynida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, savdo-sotiq sohasida o'zaro almashinuvida xizmat qilgan savdo yo'lining vujudga kelish tarixi, rivojlanishi, bugungacha va bugungi kundagi holati, yurtimizning ushbu yo'l tarixida tutgan o'rniniga doir muhim tarixiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, O'zbekiston, Ozarbayjon, tarixiy meros, madaniy aloqalar, savdo yo'li, zamonaviy hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the role of Uzbekistan and other eastern countries in the formation and development of the Great Silk Road, their historical cooperation, and their mutual influence on cultural and economic development. It also highlights the modern directions of cooperation between these countries based on the heritage of the historical Silk Road during the period of independence. This article provides important historical information about the history of the emergence of the trade route, its development, its current and future state, and the place of our country in the history of this route, which has served humanity for many years in economic, political, social, and trade exchanges.

Keywords: Great Silk Road, Uzbekistan, Azerbaijan, historical heritage, cultural relations, trade route, modern cooperation.

Buyuk ipak yo'li-mil.avv.II asrdan to milodiy XV asrgacha, qariyb 1700 yil davomida Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarda xizmat qilgan. Buyuk ipak yo'li ko'pgina davlatlarning tarixiy sivilizatsion aloqalarida muhim vosita sifatida, insoniyatga uzoq yillar mobaynida xizmat qilgan. Xitoy hududidan boshlanib O'rta Osiyo orqali o'tuvchi, xalqlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy aloqlarni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosidagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududlari bu yo'lining

chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar.

Ipak yo'lining yo'nalishlari butun dunyoga ma'lum bo'ldi va tez orada u orqali nafaqat karvonchilar, balki afsonaviy sayohatchilar va sarkardalar ham o'ta boshladilar. Masalan, italiyalik sayyoh va savdogar Marko Polo Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat qilganidan so'ng "Dunyo xilma-xilligi haqida kitob" asarini yaratdi. Shuningdek, jahonga mashhur sarkarda Chingizxon Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab o'tgan. Ko'p yillar davom etgan mashaqqatli yo'l mard sayohatchilar va savdogarlarni cho'chitib yubormadi. Ularning yo'lida jangari ko'chmanchilar, suvsiz cho'llar va iqlimi og'ir tog'lar uchrashishi mumkin edi. Ko'pincha to'g'ri yo'lning yo'nalishini "odamlar va hayvonlarning suyaklari" orqali tanib olish mumkin edi. Ammo bu yo'l tufayli dunyo biz hozir ko'rib turganimizdek, zamonaviy tarzda o'zgardi. Ulug'vor yodgorlik shaharlari tarixiy va me'moriy binolari bilan o'tmishdan bir xotira sifatida tirik afsonaga aylandi.

1987-yil YuNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMTning umumjahon dekadasi doirasida «Ipak yo'li — muloqot yo'li» xalqaro dasturini qabul qildi. Bu dastur O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixlarini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat.

Ko'plab (30 dan ziyod) xalqaro ilmiy konferentsiya (jumladan, Samarqand, 1990 yil okt.; Buxoro, 1996 yil fev.) va seminarlar o'tkazildi. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab birgalikda xalqaro ekspeditsiyalar uyushtirildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, va maqolalar chop etildi, ba'zi arxeologik va me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Ba'zi biri Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri Lanka, Yaponiya)

Buyuk Ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy intlar barpo etilgan. BMT va YuNESKO qaroriga ko'ra, Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro ilm va tatqiqot markazi ochilgan. 1997-yil mayda O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lagan Saraxs-Mashhad temir yo'li uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O'rta Osiyo mamlakatlari Fors qo'ltig'iga, Yevropa mamlakatlari esa O'rta Osiyoga chiqish imkoniga ega bo'ldilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari Buyuk Ipak yo'lini tiklash bo'yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transportyo'lagi (TRACECA)) [4. B. 816].

O'zbekiston hududida joylashgan Samarqand, Buxoro, Toshkent va Termiz qadimdan Ipak yo'li karvonlarining asosiy to'xtash joylari bo'lgan. Bu shaharlar orqali Xitoy, Hindiston, Eron, Arabiston, Ozarbayjon va Yevropa mamlakatlariga ipak, ziravorlar, metall buyumlar, shisha, gilam va boshqa mahsulotlar olib o'tilgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo xalqlari san'at, falsafa, astronomiya va tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishgan.

Ozarbayjon esa Ipak yo'lining g'arbiy yo'nalishida joylashib, Boku, Ganja, Naxchivon, Sheki kabi shaharlar orqali Kaspiy dengizi orqali Yevropaga chiqish eshigini ochgan. Bu hududda ipakchilik, gilamdo'zlik, zargarlik va savdogarlik rivoj topgan. Ayniqsa, Sheki

shahri "Ipak shahri" sifatida mashhur bo'lgan bo'lib, u Ozarbayjonning YUNESKO merosi sifatida e'tirof etilgan tarixiy markazidir.

Ipak yo'li" atamasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. 1877-yilda baron Ferdinand fon Rixtgofen birinchilardan bo'lib savdo yo'li xaritasini batafsil o'rganib, unga shunday nom berdi. Taxminan milodiy I asrda Buyuk Ipak yo'li o'z taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Savdo yo'li sharqda Xitoyning Loyan shahridan boshlanib, Xitoyning ko'plab shaharlari va O'rta Osiyodan o'tib, Italiyada, Rimda tugagan. Yo'l uchta yo'nalish va ko'plab tarmoqlardan iborat bo'lgan. Asosiy yo'nalishlar Shimoliy, Markaziy va Janubiy yo'llar edi.

Shimoliy yo'l Tarim daryosi bo'ylab Tyan-Shan tog'lari orqali, Farg'ona vodiysiga burilib, O'rta Osiyo daryolari oralig'idan Volganing quyi oqimiga, yunon koloniyalariga o'tgan. Yo'l-yo'lakay karvonlar shaharlarda yoki eng go'zal vohalarda to'xtab, o'z mollarini sotardilar. Shu tariqa, yangi shaharlar paydo bo'ldi, eskilari esa o'sib, yanada kattalashdi. O'zbekiston hududida savdo va hunarmandchilik shaharlari: Andijon, Qo'qon, Buxoro, Shahrisabz, Samarqand va Xiva gullab-yashnagan.

Janubiy yo'l Hindiston, Afg'oniston va Eronning hozirgi hududlaridan o'tgan. Markaziy yo'l Fors va O'rtayer dengizi orqali o'tgan. Ipak yo'lining yo'nalishlari butun dunyoga ma'lum bo'ldi va tez orada u orqali nafaqat karvonchilar, balki afsonaviy sayohatchilar va sarkardalar ham o'ta boshladilar. Masalan, italiyalik sayyoh va savdogar Marko Polo Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat qilganidan so'ng "Dunyo xilma-xilligi haqida kitob" asarini yaratdi. Shuningdek, jahonga mashhur sarkarda Chingizxon Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab o'tgan. Ko'p yillar davom etgan mashaqqatli yo'l mard sayohatchilar va savdogarlarni cho'chitib yubormadi. Ularning yo'lida jangari ko'chmanchilar, suvsiz cho'llar va iqlimi og'ir tog'lar uchrashishi mumkin edi. Ko'pincha to'g'ri yo'lning yo'nalishini "odamlar va hayvonlarning suyaklari" orqali tanib olish mumkin edi. Ammo bu yo'l tufayli dunyo biz hozir ko'rib turganimizdek, zamonaviy tarzda o'zgardi. Ulug'vor yodgorlik shaharlari tarixiy va me'moriy binolari bilan o'tmishdan bir xotira sifatida tirik afsonaga aylandi.

O'zbekistonda Buyuk ipak yo'lini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. 1995-yil

2-iyunda "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi "farmoni e'lon qilindi. Shu asosda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi

"Ipak yo'li O'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200 dan ortiq yo'nalishlar ishlab chiqdi.

Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent Samarqand Buxoro. Xiva hamda Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab o'tadi. Ipak yo'lining ahamiyati dunyo

xalqlarining rivojlanishiga juda katta xizmat qilgan. Nafaqat savdo-sotiq balki ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalqlar o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni o'rnatgan, rivojlantirgan, hududlar o'rtasidagi o'zoro aloqalarni mustahkamlanishiga olib kelgan [2. B. 3]

Ma'lumki, XV asrning oxirlarida yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro dengiz yo'llarining ochilishi tufayli Yevropa va Osiyo davlatlarining ko'pchiligi hayotida, xalqaro aloqalar va savdo yo'llari tizimida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Undan tashqari XV-XVI asrlarda Usmonli turklarning istilolari ham G'arbiy Yevropa xalqlari bilan Markaziy Osiyo o'rtasida mavjud azaliy aloqa yo'llari yo'nalishlarining o'zgarishiga olib keldi. Natijada, ulkan hududlarni qamrab olgan Buyuk Ipak yo'li XVI asrdan boshlab o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Bu holat birinchi navbatda Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli G'arbiy Yevropadan Xitoy va Hindistonga olib boruvchi dengiz yo'llarining ochilishi va ulardan izchil foydalanishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bu davrda O'rta Osiyoda boshlangan o'zaro sulolaviy kurashlar markaziy davlat xokimiyatining zaiflashuviga, karvon yo'llari xavfsizligining to'liq ta'minlanmaganligiga olib keldi. Natijada asrlar davomida Sharq va G'arb dunyosini bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li inqirozga uchradi [1. B. 5-6].

Bugungi kunda dunyo global integratsiya davriga kirar ekan, Buyuk Ipak yo'li g'oyasi yana yangicha mazmun kasb etmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon kabi davlatlar ushbu tarixiy yo'lni faqat o'tmish yodgorligi emas, balki kelajakdagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorlikning poydevori sifatida ko'rmoqda. Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixida nafaqat savdo yo'li, balki madaniyatlararo muloqot, g'oyalar almashuvi va tinchlik timsoli bo'lgan. Bu yo'lning eng katta ahamiyati u xalqlarni birlashtirgan, tillar, dinlar va madaniyatlar o'rtasida ko'priklarni qurib xizmat qilganidadir. Shu bois, Ipak yo'li — bu faqat geografik yo'l emas, balki insoniyat taraqqiyoti yo'li, millatlar o'rtasidagi tinchlik, do'stlik va taraqqiyot timsolidir.

Xulosa: Buyuk Ipak yo'li insoniyat madaniy merosining bebaho timsoli bo'lib, u xalqaro muloqot, savdo va madaniyat rivojida hal qiluvchi o'rin tutgan. O'zbekiston hududi bu yo'lning yuragi sifatida qadimdan turli sivilizatsiyalarni birlashtirib kelgan. Bugungi kunda Ipak yo'li merosini o'rganish nafaqat tarixni anglash, balki xalqlararo do'stlik, tinchlik va madaniy diplomatiyani mustahkamlash uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov Q. Mamayusupov O. Buyuk ipak yo'li muloqot yo'li va hamkorlik yo'li. 2022-yil. 8 bet.
2. Madalimova M. Ipak yo'li muloqot yo'li. 4 bet.
3. UNESCO. Sheki – a significant city at the crossroads of the historic Silk Roads, inscribed on UNESCO's World Heritage List. – 2020.
4. O'zbekiston milliy ensklapediyasi. 1-jild. Toshkent. 2005-yil
5. <https://uzbekistan.travel>.